

**SUN'iy INTELLEKT HAQIDAGI QARASHLARNING RIVOJLANISHI.**

*Termiz davlat pedagogika institute  
Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasi o'qituvchisi  
Shaymanov Fozilbek To'lqin o'g'li*

*Tel: +998903559296*

*Gmail: fozil.9296.shaymanov@gmail.com*

**Annotatsiya:** Sun'iy intellekt sohasida olib borilgan tadqiqotlar tarixini to'rt da vrga bo'lish mumkin: klassik, romantik, modernizm davri va postmodernizm davri. Sun'iy intellekt bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning klassik davri kompyuterlar va ul arni qo'llash bo'yicha dastlabki tajribalar bilan bog'liq. 1956 yilda amerikalik tadqiqtchi Djordj Makkarti ikkita ma'noga ega bo'lgan "sun'iy intellekt" atamasini olib kira di.

Bilimlarni egallash tartibsiz emas, balki maqsadga muvofiq ko'p bosqichli jarayon bo'lmog'i lozim. Bu haqda mashhur fiziolog olim I.P. Pavlov yozadi: "bilimlarning to'planishida eng avvalo o'z ishingizda jiddiy izchillikka amal qilishingiz lozim. Fan cho'qqisiga ko'tarilishdan oldin fan asoslarini o'rganing, oldingilarni bilmay turib, keyingilarni anglashga harakat qilmang...O'zingizda sabr-toqat va chidamni tarbiyalang. Fanda qora ishlarni qilishga ham odatlaning, dalillarni o'rganing, qiyoslang, to'plang". Ayni paytda inson fikrlashning muayyan usullari, ya'ni analiz, sintez, qiyoslash kabi qobiliyatga ega bo'lganda bilimlar uning uchun chindan haqiqat sanaladi. Voqealar mohiyatini ochish, yuzaki tasavvurlarni istisno qilish, yangilik va asliyatni kashf etish qobiliyati tufayli intellektning rivojlanishi, ijodiy tafakkur yo'nalishi namoyon bo'ladi. Tasavvurlarda eskilik qoldiqlariga aylangan bilimlarni yuzaki, notanqidiy tarzda o'z-lashtirish esa tafakkur jarayonini cheklab qo'yadi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida erkin fikr yuritishga katta e'tibor berilmoqda. "Odamlar qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyonи yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni falsafiy jihatdan to'g'ri anglay olsa, shundan keyingina unda g'urur-iftixor paydo bo'ladi", degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov talabalar bilan suhbatda.

Intellektni bilish jarayonidagi vazifasi ham gnoseologik, ham epistemologik xususiyatga ega. Bu xususida rus faylasuf va yozuvchilari N.A.Berdyaev, F.M.Dostoevskiy, L.N.Tolstoy, T.P.Fedotov va boshqalar asosli fikrlarni bildirib o'tganlar. Masalan, N.A.Berdyaev inson intellektini ozod va mustaqil bo'lgan holda voqelikni to'g'ri in'ikos ettirishi mumkinligini, aks holda intellektdagi qaramlik voqelikni to'g'ri aks ettira olmasligi va hatto rivojlanish hususiyatiga ham ega bo'la olmasligini keltirib o'tadi .

Ingliz faylasufi Richard Prays intellektni o'rganish borasida maxsus tadqiqot olib borib, intellektni ko'proq intuitiv bilish bilan uyg'unlashuvi natijasida yanada rivojlanib borishi mumkinligi xususida alohida to'xtalib o'tadi. "Intuitiv bilishni asosiy xususiyati mutlaq haqiqatni bilishga qodirligi bilan ham belgilanadi".

Kembridj universitetining neoplatonchilari R.Kaduorta, R.Kamberlendalar intellektning bilish jarayonidagi vazifasi to'g'risida alohida to'xtalib uni asosan ma'naviy-ruhiy jarayon ko'rsatib o'tadi.

Intellektni falsafiy jihatdan talqin qilgan ta'limot namoyondalari S.Klark va U.Uollastonarning fikrlariga ko'ra "intellekt hissiy, aqliy va ma'naviy-ruhiy jarayonlar bilan birgalikda voqelikni mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganib, yangiliklarga erishadi".

Fan, intellekt va intuitiv bilishni sinergetik tafakkurni shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini I.Prigojin va I.Stengers o'zlarining hamkorlikda yozgan kitoblarida qayd etib, xususan Bergsonni vaqt xususidagi metafizik qarashlari muhim ahamiyat kasb etganligini ta'kidlaydilar. Britaniya faylasufi va sosiologi Karl Rixard Popper intellektni bilish jarayonidagi vazifasida tanqidiy rasionalistik qarashlar katta o'ringa ega bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek Popper intellektual salohiyatni bilish jarayonidagi ob'ektiv xususiyatlariga alohida e'tibor beradi.

Intellekt o'zining muayyag mazmundorligi bilan tafakkurdan ajralib turadi. Agar biz intellekt so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda bilishning faol momenti ham, ijodiylilik, yaratuvchanlik, noma'lum narsalar mohiyatiga kirish momenti ham mavjudligini ko'ramiz. Intellekt tadqiq etish sohasida rang-barang yondashuvlar mavjud va ularda, tabiiyki, turlicha nuqtai nazarlar o'rinn olgan. Shu munosabat bilan ularning ayrimlari to'g'risida umumiyligini mulohazalar bildirish ortiqchalik qilmaydi, deb hisoblaymiz. Shulardan biri assosionistik yondashuv bo'lib, unda tafakkur obraz-tasavvurlarga g'ayriixtiyoriy ergashish sifatida, assosiasiyalarning to'planishi jarayoni sifatida(D.Gartli, Dj.Pristli, Dj. Mill' va boshqalar) tadqiq etadi. Intellektni intellektual operatsiyalarning amal qilishi tarzida tavsiflab, asosiy g'oyalarni igari surgan O.Zel's taalluqli Vyursburg maktabining O.Kyul'pe, N.Ax, K.Marbe kabi namoyandalari ham tafakkurni jarayon tariqasida o'rganishda alohida e'tibor qaratadilar. Gelshtal'tpsixologiya vakillaridan M.Vertgeymer, K.Koffka, K.Dunker, V.Keler iafakkurni vaziyatlarni qayta strukturalash hodisasi tarzida talqin qildilar. Tafakkur sub'ektiv bixevoiristlar (D.Miller, Yu.Galanter va boshqalar) nazarida amalda "organizmdagi jarayon"dir. Psixoanalitiklar insoni xulq-atvori muammosini birinchi o'ringa qo'yadilar. Ular fikricha, tush ko'rganda paydo bo'luvchi g'ayriixtiyoriy obrazli fikrlar tafakkur asosida yotgan ongsiz motivlar paydo bo'lishining muhim jihatlari tarzida talqin qilinadi. Kognitiv dissonans nazarriyasi(L.Festinger), o'z-o'zini aktuallashtirish nazariyasi (A.Maslou, K.Yung) bilishni nisbatan oddiy ko'rinishdagi motivasiyalarga bog'lab o'rganadi. Bilish eng yaxshi

ma'noda motiv paydo bo'lishi maydoni tariqasida belgilansa-da, bilish faoliyati atroficha ko'rib chiqilmaydi.

XX asr o'rtalarida intellektni kognitiv faollik sifatida yondashish asosida o'rganish shakllandi (A.N'yuell,G.Saymon,P.Lindsey, U. Naysser va boshqalar). Bu yondashuv tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabilarni o'zaro ajratib o'rganish tendensiyasiga barxam berishga intiladi. U. Naysser kognitiv faollikning umumiyligi ta'rifini shunday keltiradi: "Bu faollik bilimlarni egallash, tashkillash va foydalanish bilan bog'langandir". Darhaqiqat, bu ta'rifning ahamiyati o'z-o'zidan ravshan va uni ma'qullash mumkin. Aqliy taraqqiyot diagnostik metodlarining yaratilishi intellekt muammomini o'rganishga yangicha urg'u berdi. Diagnostikaning mazmuni ruhiy taraqqiyotning umumiyligi nazariyasi, uning nazariy modelidan kelib chiqib belgilanadi. Bu sohada A.Bine ishlab chiqqan testlar dastdabki qadam bo'ldi, ayniqsa, L.Termenning variantlari modifikasiyada o'z hayotiyligini ko'rsatdi.

Fantast-yozuvchi Garri Garrison va olim Marvin Minskilarning «T'yuring bo'yicha tanlov» asarida mualliflar miyasiga EHM kiritilgan insondagi odamiylikning yo'qolishi va inson miyasidagi axborot ko'chirilgan xotira mavzusida mushohada yuritadilar. Ayrim ilmiy fantastlar, jumladan Vernor Vindj ham jamiyatda keskin dramatik o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sun'iy intellektning yuzaga kelishi oqibatlari to'g'risida mushohada yuritganlar. Bunday davrni texnologik singulyarlik davri deb ataydilar.

Sun'iy intellekt mavzusi Robert Xaynlayn ijodining turli jabhalarida o'rganilgan: ongning boshqa tashuvchilari («The Moon Is a Harsh Mistress», «TimeEnoughForLove», «Kelajak tarixi» siklidagi Maycroft, Dora i Aya personajlari), va atrof olam bilan o'zaro bog'liqlik mavjudligida va keyinchalik aniqlangan ma'lum tanqidiy darajadagi tarkibning murakkablashuvida sun'iy intellektning o'zini-o'zi anglab yetishining yuzaga kelish gipotezasi, gipotetik o'z-o'zini anglashdan so'ng sun'iy intellektning rivojlanish muammolari va ayrim ijtimoiy-axloqiy masalalar («Friday»). Inson bilan sun'iy intellekt o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik muammolarini "Tig' uzra yuguruv-chilar" fil'mi bo'yicha mashhur bo'lgan Filip K.Dik ham o'zining "Androidalar tushiga elektron qo'ylar kirarmikin?" nomli asarida ko'rib chiqadi.

Sun'iy intellekt neyrofiziologiya, epistemologiya va kognitiv psixologiya bilan birgalikda kognitologiya deya ataluvchi birmuncha umumiyligi fanni hosil qiladi. Sun'iy intellektda falsafa muhim rol o'ynaydi. Shuningdek falsafa doirasidagi tizimlar to'g'risidagi fan – epistemologiya sun'iy intellekt muammolari bilan chambarchas bog'liq. Mazkur muammo bilan shug'ullanuvchi faylasuflar sun'iy intellekt muhandislari tomonidan bilimlar va ma'lumotlarni qanday yaxshiroq tasavvur qilish va qo'llash to'g'risida yechiladigan masalalarga o'xshash masalalarni hal etadilar.

Inson ongingin eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu xotiradir. Xotira – bu olingan bilimlarni to‘g‘ri tadbiq qilish hamda yuz berayotgan voqealarni baholash uchun miyadagi zarur ma'lumotlarni chiqarib olish qobiliyatidir. Tafakkur ma'lumotning yaratilishi, yetkazib berilishi va qayta o‘zgartirilishi bilan bog‘liq, bu jarayonlar esa nafaqat inson miyasida, balki boshqa tizimlarda ham, masalan komp'yuterda ham yuz berishi mumkin. Sun‘iy intellekt asosan tabiiy intellektga nisbatan yordachi vazifasini bajaradi. U ahamiyatli darajada insonning ayrim tafakkurga oid harakatlarini o‘z zimmasiga olish yo‘li bilan uning aqliy mehnatini yengillashtiradi. Sun‘iy intellekt inson intellektiga o‘xshash ravishda yaratilganligi sababli uning harakatlani prinsiplarini tadqiq qilish, inson miyasida yuz berayotgan tafakkur qilish jarayonlarining mohiyatini anglash imkonini beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Shermuhamedova. N “Inson Falsafasi” T 2013 177 b
2. Bevruchko B.P., Koronovskiy A.A., Trubetskov D.I., Xramov A.E. Sinergetikaga yo‘l: o‘nta ma’ruzada ekskursiya. – M.: “LIBROKOM” kitob uyi, 2010. – 304 b.
3. Berdyayev N. A. Ijodning ma’nosi // Ijod falsafasi, madaniyat va san’at. - M.: San’at, 1994 yil.
4. Vinnikot D. O‘yin va haqiqat. – M.: Umumiy gumanitar tadqiqotlar instituti, 2002 y.
5. Berdyayev N.A. Aql-idrok inqirozi va ziyorolar missiyasi. // Yangi dunyo. 1990 yil 230-bet.
6. Balandin R.K. Katta portlash haqidagi afsona. Xoking nimada noto‘g‘ri? Zamonaviy ilm-fanning afsonalari va raqslari. M. Veche. 2015. 288p.
7. Xoking S. va boshqalar Katta, kichik va inson aqli Amphora 2014. 196 p.
8. Fergyusson Kitti. Stiven Xoking: Hayot va fan. Per. ingliz tilidan L. so‘m. M., Korpus, AST, 2014. 496 p.